



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti  
bo'yicha

B U Y R U Q

Samarqand sh.

383-u-son  
04.11.2021 yil.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi 2020-yil 17-fevraldagi 72-  
f-son farmoyishi va O'zbekiston  
Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligining 2021-yil 22-oktabrdagi 443-  
sonli buyrug'i hamda O'zbekiston  
Respublikasi Qurilish vazirligining 2021-yil  
25-oktabrdagi 194-sonli buyrug'i haqida

ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari foydalanish bo'yicha xalqaro talablar va tavsiyalar" xalqaro standart talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 17-fevraldagi 72-f-son farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2021-yil 25-oktabrdagi 194-sonli buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 22-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimida Kompleyents nazorat tizimini joriy etish va korruptsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida" gi 443-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Institutning barcha prorektorlari, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlariga:

- Institutning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati" 1-ilovaga;
- Institutda korruptsiyaviy xavf-xatarni baholash uslubiyoti" 2-ilovaga;
- Institutda manfaatlar to'qashuvini boshqarish bo'yicha nizom" 3-ilovaga;
- Institutda aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti" 4-ilovaga;
- Institutda xodimlarning etika va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomasi" 5-ilovaga;
- Institutda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomasi" 6-ilovaga;
- Institutda Korruptsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom" 7-ilovaga;

-Institutda xodimlarning korruptsiyaviy xatti-harakatlari va o'dob-axloq qoidalarini buzish holatlari usidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament" 8-  
ilovaga;

-Institutda korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim samaradorlik ko'rsatkichlari" 9-ilovaga;

-Institutda korruptsiyaga qarshi kurashish "Kompleyents-nazorat" tizimini boshqarish bo'yicha nizom" 10-ilovaga;

-Institutda korruptsiyaga qarshi kurashish "Kompleyents-nazorat" tizimini boshqarish bo'yicha mas'ul xodimlari va koordinatorlari to'g'risidagi nizom" 11-ilovaga;

-Institutda o'dob-axloq Komissiyasi to'g'risida nizom" 12-ilovaga;

-Institut tarkibiy tuzilmasiga kiradigan bo'limlar shartnomalarida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha moddani kiritish to'g'risida yo'riqnomasi" 13-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Korruptsiyaga qarshi kurashish "Kompleyents nazorat" tizimini boshqarish bo'yicha boshlig'i ushbu nizom va yo'riqnomalarning mazmun-mohiyati haqida rahbar-xodimlar, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlarga tushuntirish ishlarini tashkil etish.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 26-apreldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi markaziy apparatining bo'limlari nizomlari va xodimlarning funksional vazifalarini tasdiqlash to'g'risida" gi 197-sonli buyrug'ining 22-ilovasi o'z kuchini yo'qotganligi inobatga olinmasin.

4. Ushbu buyruqning ijrosi nazoratini o'z zimmasida qoldiram.

Ch.J. Turkyilmaz

